

## O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

**To‘laganova Dilnoza Abduvohidovna**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

2-bosqich magistranti

ORCID: 0009-0008-4638-6398

E-mail: [yunusobod1957@gmail.com](mailto:yunusobod1957@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy va institutsional jihatlari o‘rganildi. Tadqiqot davomida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy faollik, bandlik va daromadlar o‘shidagi o‘rni tahlil qilindi. Natijalarda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim dasturlari va institutsional mexanizmlar ayollarning biznes faoliyatini kengaytirishga xizmat qilgani aniqlandi. Xalqaro tajribalar asosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samarali yo‘nalishlari baholanib, iqtisodiy inklyuzivlik va barqaror rivojlanishni kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** ayollar tadbirkorligi, gender tengligi, biznes rivojlanishi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, bandlik, iqtisodiy faollik, institutsional mexanizmlar.

### Аннотация

В статье были исследованы экономические и институциональные аспекты развития женского предпринимательства в Узбекистане. В ходе исследования была проанализирована роль женского предпринимательства в повышении экономической активности, занятости и доходов населения. Полученные результаты показали, что финансовая поддержка, образовательные программы и институциональные механизмы способствовали расширению предпринимательской деятельности женщин. Также на основе международного опыта были оценены эффективные направления развития женского предпринимательства и разработаны рекомендации по укреплению экономической инклюзивности и устойчивого развития.

**Ключевые слова:** женское предпринимательство, гендерное равенство, развитие бизнеса, финансовая поддержка, занятость, экономическая активность, институциональные механизмы.

### Abstract

This article examined the economic and institutional aspects of women's entrepreneurship development in Uzbekistan. The study analyzed the role of women's entrepreneurship in increasing economic activity, employment, and household income. The findings showed that financial support, educational programs, and institutional mechanisms contributed to the expansion of women's business activities. Based on international experience, effective approaches to supporting women entrepreneurs were evaluated, and recommendations aimed at strengthening economic inclusiveness and sustainable development were proposed. The study highlighted the growing contribution of women entrepreneurs to economic progress.

**Keywords:** women's entrepreneurship, gender equality, business development, financial support, employment, economic activity, institutional mechanisms.

## **KIRISH**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar doirasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan dasturlar, imtiyozlar va institutsional choralar ayollarni biznes faoliyatiga kengroq jalb etishga xizmat qilmoqda. Natijada ayollar tadbirkorligining iqtisodiyotdagi ulushi bosqichma-bosqich ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat bandlik darajasini oshirish, balki oilaviy daromadlarni ko'paytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jarayoni hali to'liq shakllanib ulgurmagan bo'lib, u qator tizimli va institutsional muammolar bilan ham bog'liq. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, biznes yuritish bo'yicha yetarli tajriba va bilimlarning yetishmasligi, shuningdek, ayrim ijtimoiy stereotiplar ayollarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va kengaytirishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va bozor mexanizmlarining to'liq ishlamasligi ham mazkur sohaning samaradorligini pasaytiruvchi omillar sirasiga kiradi.

Muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash nafaqat ijtimoiy masala, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralishi lozim. Aynan shu jihatlar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi global miqyosda iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar turli nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro miqyosda ayollar tadbirkorligi masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Joseph Schumpeter tadbirkorlikni innovatsiyalar bilan bog'lab, iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida izohlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, ayollar tadbirkorligi ham yangi g'oyalar va biznes modellarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

David McClelland tadbirkorlik faoliyatini motivatsiya nazariyasi orqali tahlil qilib, muvaffaqiyatga erishishda ichki rag'bat va ehtiyojlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yondashuv ayollar tadbirkorligida psixologik omillar muhimligini ko'rsatadi.

Ayollar tadbirkorligining gender jihatlari Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan imkoniyatlar (capability) yondashuvi asosida keng yoritilgan. Unga ko'ra, ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish ularning farovonligini oshirish bilan birga, jamiyat rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar ham ushbu sohada muhim tadqiqotlar olib borgan. Xususan, World Bank hisobotlarida ayollar tadbirkorligi kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlash vositasi sifatida baholanadi. UN Women tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ayollar biznesini qo'llab-quvvatlashda institutsional mexanizmlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Masalan, iqtisodchi Qobiljon Abdullayev tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollarning roli alohida tahlil qilingan. U ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, Dilnoza Tursunova o'z ilmiy ishlarida ayollar tadbirkorligiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, biznes bilimlarining yetishmasligi va ijtimoiy stereotiplarni ko'rsatib o'tadi.

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezident administratsiyasi va tegishli qarorlar asosida ayollarni biznesga jalb qilish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish va kasb-hunar o'rgatish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ham muhim dasturlarni amalga oshirmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- moliyalashtirish imkoniyatlarining yetarli emasligi;
- biznes ko'nikmalarining past darajasi;
- infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
- gender stereotiplari va ijtimoiy to'siqlar.

Yuqoridagi tadqiqotlar umumlashtirilganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qilishi aniqlanadi. Ya'ni, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni uyg'un holda rivojlantirish zarur

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish omillarini baholash uchun tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar o'zaro bog'liqlikda baholandi. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, biznes ko'nikmalari, ijtimoiy infratuzilma va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy natijalari o'rganildi. Xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning samarali yo'nalishlari aniqlandi. Olingan natijalar asosida iqtisodiy faollikni oshirish, biznes imkoniyatlarini kengaytirish va inklyuziv rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ularning iqtisodiy faolligini oshirish, biznes yuritish imkoniyatlarini kengaytirish hamda bandlikni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini tasdiqladi. O‘rganilgan ma‘lumotlar ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirish, oilalar daromadlarini oshirish va inklyuziv rivojlanishni ta‘minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

So‘rov natijalari va fokus-guruh muhokamalari ayollar tadbirkorligi rivojiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, biznes ko‘nikmalari, oilaviy mas‘uliyat, huquqiy savodxonlik va institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, oila a‘zolarini parvarishlash bilan bog‘liq yuklama ayollar tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga ta‘sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

### 1-jadval

#### Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi asosiy omillar<sup>1</sup>

Omillar	Tadqiqot natijalari	Kutilayotgan natija
Moliyaviy xizmatlardan foydalanish	Kredit va moliyaviy resurslarga talab yuqoriligi aniqlandi	Biznes faoliyatining kengayishi
Biznes ta‘limi va ko‘nikmalar	Tadbirkorlik bilimlarini oshirish zarurati kuzatildi	Korxonalar samaradorligining ortishi
Oilaviy va ijtimoiy omillar	Parvarish xizmatlariga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi	Ayollar iqtisodiy faolligining oshishi
Huquqiy savodxonlik	Huquqiy maslahat xizmatlariga talab yuqori	Biznes xavflarining kamayishi
Institutsional qo‘llab-quvvatlash	Davlat dasturlari ijobiy natija bergani qayd etildi	Tadbirkor ayollar sonining ko‘payishi
Biznes tarmoqlari va mentorlik	Tajriba almashish imkoniyatlari muhimligi aniqlandi	Bozor imkoniyatlarining kengayishi

Tahlillar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ayollar tadbirkorligi rivojlanishida muhim o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Kreditlash, sug‘urta va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi yangi biznes tashabbuslarini amalga oshirish va mavjud korxonalar faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Xalqaro tajribalar ayollar rahbarlik qilayotgan biznes subyektlarini istiqbolli mijozlar segmenti sifatida qo‘llab-quvvatlash moliya institutlari uchun ham samarali yo‘nalish ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari tadbirkor ayollarning biznes ta‘limi va kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ehtiyojlari yuqori ekanligini ham ko‘rsatdi. Biznes boshqaruvi, marketing, moliyaviy rejalashtirish va raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilimlarni oshirish korxonalar faoliyati samaradorligini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, murabbiylik dasturlari va professional tarmoqlar bilan hamkorlik ayollar tadbirkorligining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etildi.

<sup>1</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

**2-jadval**
**Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari<sup>1</sup>**

Yo‘nalish	Aniqlangan holat	Takomillashtirish imkoniyati
Moliyalashtirish	Kredit resurslariga talab yuqori	Maxsus moliyaviy mahsulotlarni kengaytirish
Sug‘urta xizmatlari	Qamrov darajasi cheklangan	Ayollar uchun mos sug‘urta instrumentlarini rivojlantirish
Ta‘lim va malaka	Biznes ko‘nikmalariga ehtiyoj mavjud	Trening va mentorlik dasturlarini kengaytirish
Huquqiy qo‘llab-quvvatlash	Huquqiy maslahat xizmatlariga ehtiyoj mavjud	Konsultatsiya markazlarini rivojlantirish
Ijtimoiy infratuzilma	Parvarish xizmatlariga talab yuqori	Bolalar va keksalarni parvarishlash xizmatlarini kengaytirish
Biznes hamkorlik	Tarmoq aloqalarini kuchaytirish zarur	Ayollar biznes uyushmalari faoliyatini rivojlantirish

Olingan natijalar davlat dasturlari, moliya institutlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlar uyushmalari axborot tarqatish, maslahat xizmatlari ko‘rsatish, biznes aloqalarini rivojlantirish va amaliy muammolarni aniqlashda muhim vositachi sifatida ishtirok etayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligining rivojlanishi iqtisodiy inklyuzivlikni kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Moliyaviy, institutsional va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning muhim omili sifatida baholandi. Natijalar ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yondashuv iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga sezilarli hissa qo‘shishini ko‘rsatdi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, bandligini ta‘minlash hamda gender tengligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega, balki mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mavjud holat ayollar tadbirkorligi rivojida qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, oilaviy majburiyatlar bilan bog‘liq yuklamalarning yuqoriligi, biznes ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda jamiyatdagi ayrim gender stereotiplar ayollarning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda.

<sup>1</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ayollar tadbirkorligini samarali rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Jumladan, moliya sektorida islohotlarni chuqurlashtirish, ayollar uchun maxsus moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni kengaytirish, ijtimoiy infratuzilmani (bolalar va qariyalarni parvarishlash xizmatlari) rivojlantirish, shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish va odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish hamda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarini tizimli baholab borish zarur. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkor ayollar uchun ta'lim va mentorlik dasturlarini rivojlantirish hamda ularning biznes tarmoqlarga integratsiyasini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan siyosat va islohotlarni yanada takomillashtirish hamda amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy etish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi. 2020-yil 22-sentabr. URL: <https://yuz.uz/uz/news/prezident-raqamli-iqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelajagi-yoq>
2. Degryse C. Digitalisation of the Economy and Its Impact on Labour Markets. Working Paper. URL: <http://ssrn.com/abstract=2730550>
3. Malik P. (2017). Gendering Digital Entrepreneurship: From Research to Practice Using a Tensional Lens. ProQuest Dissertations Publishing. Purdue University. URL: <http://docs.lib.purdue.edu/dissertations/AAI10266070/>
4. Global Entrepreneurship Monitor (GEM). Women's Entrepreneurship Report 2020/21: Thriving Through Crisis.
5. Minniti M., Allen E., Langowitz N. (2006). The 2005 Global Entrepreneurship Monitor Special Topic Report: Women in Entrepreneurship. Babson College, Center for Women Leadership. Babson Park, MA.
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz>
7. Minniti M. (2009). Gender Issues in Entrepreneurship. Foundations and Trends in Entrepreneurship, 5(7-8), 497-621.
8. Schwartz E. (1976). Entrepreneurship: A New Female Frontier. Journal of Contemporary Business, 5, 47-76.
9. Ahl H., Nelson T. (2010). Moving Forward: Institutional Perspectives on Gender and Entrepreneurship. International Journal of Gender and Entrepreneurship, 2, 5-9.

10. Абриталина А.С. (2006). Женское предпринимательство: социально-экономические мотивы и факторы: диссертация кандидата социологических наук. Саратов. 153 с.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**